

## KUTUBXONA ORQALI OCHILGAN ADIB SIYMOSI

*Yoqutxon Sodiqjonova*

*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy*

*kommunikatsiyalar universiteti 4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning kutubxonasida jamlangan kitoblar to'g'risida va yozuvchi xarakterini ochib beruvchi asarlar haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Kutubxona, yozuvchi, hikoya, tarjima, ijod.

**Annotation:** This article talks about the books collected in the library of Abdulla Qahhor and about the works that reveal the character of the writer.

**Key words:** Library, writer, story, translation, creativity.

Mutolaa jarayoni juda ajib holat. Siz bir adib, yoxud bir asar ustida ko'p mutolaa qilishni boshdan kechirar ekansiz, borgan sari uning tubiga asta-sekinlik bilan kirib boraverasiz. Dastlab, shu jarayonga kirishishingiz murakkab kechishi mumkin. Ammo, keyinchalik uni tark etkingiz kelmaydi. Munaqqid Ozod Sharafiddinovning maqolasi orqali uning ichki va tashqi dunyosidan xabardor bo'lganingiz sayin, uning kechinmalarini, maqolada qo'llagan uslublarini, kerak bo'lsa har bir tanlangan jumlasini tobora yaxshiroq anglayverasiz. Vaqti kelib, shu inson sizning g'oyibona ustozingizga aylanib qolganini o'zingiz ham bilmay qolasiz. Ha, shunday vaziyat ham bo'ldiki, siz ustoz deb bilgan insonning uslubini yozayotgan maqolangizda yoki asaringizda o'z-o'zidan qo'llab ketaverasiz. Ammo u ham avval bu uslubni kimdandir o'rgangani tabiiy. Ozod Sharafiddinovning ijodini kuzatgan holda shunga amin bo'lasizki, o'zi yozishga tanlab olgan adib bo'ladimi yoki jadidchi, uning portretini shu qadar jonli chizadiki, uni o'quvchi mutlaqo tasavvur etmay iloji yo'q. Munaqqidning yana bir san'at asariga to'xtalar ekanman, unda adib kutubxonasi orqali muallimi Abdulla Qahhor to'g'risida bor ko'rgan, bilganlarini qog'oz qarshisida o'quvchiga tanish ranglar uzra tasvirlaydi.

Ozod Sharafiddinov Abdulla Qahhor bilan o'n yildan ortiq muloqotda bo'lsa-da, ammo uning shaxsiy ijod xonasiga biror marta ham qadam qo'ymagan. Garchan o'zi buni chin dildan istasada, Abdulla Qahhorning hayotligida bu baxtga muyassar bo'lmagan. Ozod Sharafiddinov ham Abdulla Qahhorga shogird. Yozuvchi hech bo'lmaganda bir bora shogirtini o'z kutubxonasi bilan yaqindan tanishtirishi, ijod jarayonini ko'rsatishi mumkin edi. Lekin nega ijodkor bu ishga unamadi? Agar bir Abdulla Qahhorning xarakterini razm solsak, u tabiatan kamtar, kamsuqum, toqtinchoq va andishali odam ekanligiga guvohi bo'lamiz. Yuqoridagi savolga javob shuki, yozuvchi o'z shaxsiyatiga aloqador barcha narsani ko'z-ko'z qilishdan mutloqo yiroq

kishi bo'lgan. Hatto, qo'lyozmalarini, asarlarining qoralama nusxalarini asrab qo'ymasdan tashlab yuboradigan darajada. Balki keyinchalik tadqiqotchilarga adabiyot tarixini yaratishda as qotishi haqida o'ylamaydigan holda tabiiy va sodda xislatlarni o'zida mujassam etgan chin inson edi.

Keyinchalik oradan yigirma yil o'tib, Ozod Sharafiddinov Abdulla Qahhorga bag'ishlangan tadqiqot ishlar sababli, Kibriyo opaning ruxsati bilan ustozining ijod xonasiga kirishga muvofiq bo'ladi. Xonadagi

buyumlar ham ijodkorning qanday inson bo'lganligini ko'rsatib turgandek, soddalikni o'zida aks ettirgan. Ya'ni kirishda xonaning o'ng tomonida poldan shiftgacha bo'lgan uzun javonlar, uning yonida esa devorga osilgan bir-ikki fotosuratlar. Chap tomondagi devor yonida divan, to'g'rida yana bir kitob javoni va unga qarashni tarafda kattagina yozuv stoli va stul [1.63]. Ha, shunday soddagina xonada Abdulla Qahhor yetishmaydi. Biroq xondagi muhit yozuvchi siymosini ko'z oldingizga keltiradi. Kitoblarni yaxshilab kuzatar ekansiz, u yerda birorta maqsadsiz yig'ilgan kitobga duch kelmaysiz. Xuddi kitoblar ham yozuvchi xarakteriga moslashgandek. Yozuvchi hikoyalarida sezganingizdek birgina so'zni noo'rin qo'llagisi kelmaydi. So'zni ayaydi, o'quvchi vaqtini qizg'onadi. Javonda jamlangan manbalar ham shunchaki duch kelgan kitoblar emas, ijod tug'ilishi uchun birlamchi bo'lgan zarur vositalardir. Aynan mana shu vositalar yozuvchilik mahoratini chuqurroq egallamoqlik uchun tamal toshi bo'lib xizmat qiladi [2. 220].

Ustoz va shogird o'rtasida kitobxonlik san'ati to'g'risida suhbat ketganida, "Yozuvchilar va tanqidchilar o'rtasida ham juda ko'p o'qiydigan tom ma'noli ziyoli odamlar bilan birga kitob o'qimaydigan, fikri tor, saviyasi past, allaqachon ortda qolib ketganlar ham uchrab turadi. Ular ko'pincha bilimsizligini quruq safsata bilan, balandparvoz gaplar bilan niqoblashga urinadi,, - deya Ozod Sharafiddinov Abdulla Qahhor bunday insonlarni xush ko'rmasligini bildirib o'tadi. Hattoki, yozuvchi bir maqolasida bundaylarga qarata kinoyali tarzda "Bir toifa yozuvchilar bor - ular kitob yozishdan ko'ra kitob o'qish qiyinroq deb bilganlari uchun yozuvchilik qilishadi,, - deb yozgan edi [1.67]. Bundan ko'rish mumkinki, Abdulla Qahhor juda ko'p mutolaa qilgan. Ammo, hatto, shunda ham o'zi ko'p o'qiganligini hech qachon rukach qilmas, bilimdonligidan maqtanmasdi ham. Sermutolaalik nafaqat uning aqliy jihatdan, balki ruhiy, ma'naviy tomondan ham rivojlanishiga turtki bo'lgan.

Adib kutubxonasiga ko'z yugurtiradigan bo'lsak, unda jahon durdonalaridan tortib, klassik adabiyotlarigacha uchratishimiz mumkin. V. Shekspir, Ch. Dikens, J. London, T. Mann, M. Tven [1.70]. Albatta bu ro'yxatni davom ettirish mumkin. Adib shu singari yuzuvchilarni o'ziga ustoz deb bilgan. Umrining oxirigacha ulardan o'rganishdan to'xtamagan. Misol uchun Gogolni olaylik, Abdulla Qahhor undan satira sirlarini o'rgangan, inson xarakterini yaratish bobida saboqlar olgan. Chexovning ko'zaynagi ortidan esa hayotga chuqurroq qarashni o'rgangan. Abdulla Qahhor

ulardan shunchaki o'zigina o'rganib qolmay, ustoz deb bilgan yozuvchilarning asarlarini o'zbek tiliga o'girib, ularni butun o'zbek kitobxonlari qo'lga ham yetib borishiga sababchi bo'ldi.

Yozuvchi kitob javoni faqat badiiy asarlar bilan cheklanmaydi. Shu bir to'p kitoblar orasida turfa lug'at kitoblarni topish ham mumkin. Bundan ma'lumki, uning benazir so'z ustasiga aylanishiga, so'zni qalban his etib, har birini o'rnida qo'llay olishida mana shu kitoblarning yordami katta. Bular, V. Dalning to'rt tomlik rus tili lug'ati, D.N. Ushakovning to'rt tomlik rus tilining izohli lug'ati, M.S. Bodnarskiyning "Geografik nomlar lug'ati,, , Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk,, va bundan tashqari, o'zbekcha-ruscha, arabcha-ruscha, forsha-ruscha, ruscha-ozarbayjoncha lug'atlar joy olgan [1.72]. Shuni sezish mumkinki, yozuvchi har bir tarjima asariga o'tkir nigoh va puxtalik bilan yondashgan.

Bir so'z bilan aytganda adab ko'p va xo'p o'qigan. Ba'zan bu mutolaa jarayoniga uning turmush o'rtog'i Kibriyo opaning ham hissa qo'shilgan. Abdulla Qahhor ishdan toliqqan paytlarida, Kibriyo Qahhorova ovoz chiqarib kitob o'qir, Abdulla Qahhor bo'lsa diqqat bilan quloq solar, kerakli yerlarida to'xtatib, o'z mulohazalarini aytib ketar edi. Shu o'rinda yozuvchidan samarali kitob o'qish texnikasini o'rganish mumkin. Misol uchun, yozuvchi o'qish uchun kitob tanlaganida mutolaadan so'ng o'sha asar to'g'risida tug'ilgan fikrlarini taqriz shaklida yozib qo'ygan. Bunday usul asarni yaxshiroq eslab qolish uchun foydadan holi emas.

Adib kitoblarining yana bir qismi shogirdlari tomonidan tortiq qilingan asarlar. Said Ahmadning "Ufq,, , Pirmul Qodirovning "Uch ildiz,, , Nosir Fozilovning "Qush qanoti bilan,, va yana ko'plab yozuvchi, shoirlarning to'plamlarini Abdulla Qahhor tomonidan o'qilib, fikr bildirilgan. Chunki yozuvchi endi tanilib kelayotgan yosh ijodkorlarga katta e'tibor qaratgan. Gazeta yoki jurnalda biror ijodkorning asari chop etilsa, o'sha zahotiyiq Abdulla Qahhor olib o'qir, kamchiligi bo'lsa bayon qilar, agar asar muvaffaqiyatli chiqqan bo'lsa, bu to'g'risida ham o'z dil ishorlarini aytib o'tardi.

Javondagi yana bir burchak adab asarlarining tarjimalari uchun ajratilgan. Bu borada Kibriyo Qahhorovanning xizmati beminnat. Tarjimon Kibriyo Qahhorova adibning "Sinchalak,, , "O'tmishdan ertaklar,, , "Qissalar va hikoyalar,, to'plamini tojik tiliga o'girib yozuvchi ijodining boshqa o'lkalarga ham yoyilishiga sababchi bo'ldi [1.76].

Shu orqali adib kutubxonasida mavjud kitoblarni tahlil qilar ekanmiz, hali javonda yana adib asarlari bilan to'lmay qolgan yerlar borligiga ko'z tushadi [3].

Adib kutubxonasiga sayohat orqali u uchun adabiyot naqadar muqaddas, yozuvchilik kasbi esa eng ulug' kasblardan biri deb qaraganini, bu yo'lda o'zining insonlik sha'ni-shavkatini hamisha pok saqlashga, har qanday dog'lardan holi tutushga uringanligi ko'rinadi. Bu xislatlar esa hammamiz uchun namunadir.

### Фойдаланган адабиётлар рўйхати:

- 1) Ozod Sharafiddinov. Olamning qalbi kitobi. “Adib kutubxonasi,, maqolasi - T.: 2014 yil “Ma’naviyat,, nashriyoti
- 2) Ozod Sharafiddinov. Fikr erkinligi zarur ehtiyoj. - T.: 2019 yil “Sharq,, nashriyoti
- 3) <https://library.ziyonet.uz> internet sayti.